



INFRASTRUKTURA OB'EKTLARINING SHAKLLANISHINING METODOLOGIK ASOSLARI

A.A. Xaitov

"University of economics and pedagogy" NOTM
Iqtisodiyot kafedrası professori, i.f.d

Al. A. Xaitov

"University of economics and pedagogy" NOTM
Iqtisodiyot kafedrası asisstanti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maqroiqtisodning ikki bo'linmasi va ularga xizmat ko'rsatuvchi infrastruktura ob'ektlarini vujudga kelishi va shakllanishi o'rganib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Moddiy soxa va nomoddiy soxa tarmoqlari, fauna-flora, foydali qazilmalar, ish kuchi, texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish infrastrukturası va sotsial (ijtimoyi) infrastruktura, yo'l infrastrukturası ob'ektlari, suv ta'minoti korxonaları, urug'chilik, ko'chatchilik, seleksiya, nou-xau, sun'iy intellekt, kooperatsiya, integratsiya.*

Mamlakat makroiqtisodiyoti ikki bo'linmadan - moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi va ularga hamda axoliga xizmat ko'rsatuvchi nomoddiy soxa tarmoqlari korxonalaridan iborat. Moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi korxonalar va tarmoqlarni shakllanishi quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) mamlakatning tabiiy iqlim sharoiti, fauna, florasi, foydali qazilmalari, ish kuchining malakasi, ishlab chiqarish vositalarining taraqqiyot darajasiga;
- 2) mamlakatdagi mehnat taqsimotini xolatiga va ixtisoslashuviga;
- 3) mamlakat iqtisodiyotining jaxon mehnat taqsimotidagi o'rni va roliga;
- 4) iqtisodiyotda texnologiya jarayonlarini taraqqiyot darajasiga;
- 5) mamlakatning joylashuvi, transport yo'nalishlarini quruqlik, suv, xavo yo'laklarini joylashganligidagi o'tkazuvchanlik darajasiga;
- 6) milliy iqtisodiyotning talabi va axolining extiyojlarining tuzilishi, miqdori kabi ko'rsatqichlarga.

Iqtisodiyotning xizmat ko'rsatvchi tarmoqlarining vujudga kelishi va shakllanishi mamlakatdagi moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi soxalar va axolining tarkibiy tuzilishi, malakasi hamda ularning extiyojlari asosida yuzaga keladi. Asosiy o'rinni mehnat taqsimoti egallaydi [1].

O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar asosan quyidagilardir:

- 1) qishloq xo'jaligida paxta, don, sholi, ipak qurti, uzum, bog'dorchilik, polizchilik, parrandachilik, yirik shoxli qoramol, qo'y, echkichilik kabi soxalar mavjud va ular faoliyat yuritmoqdalar.



2) tog'-kon sanoatida oltin, kumush, gaz, mis, ko'mir, neft kabi bir qator foydali qazilmalarga boy konlarda faoliyat yuritilmoqda.

3) yengil sanoat tarmog'ida to'qimachilik tez rivojlanmoqda.

4) kiyim-kechak, trikotaj, poyafzal yo'nalishlari dadil taraqqiy etmoqda.

5) xolodelnik, sovutgich, chang yutgich kabi axolining iste'moli uchun kundalik turmush tovarlari ishlab chiqarilmoqda.

6) yuk va passajirlarga xizmat ko'rsatuvchi avtosanoat korxonalari tovarlari ishlab chiqarilmoqda.

7) turizm yo'nalishi rivoji yildan yilga rivojlanib borishi jadallashmoqda [2].

Infrastruktura ob'ektlari ikki yo'nalishda shakllanadi: ishlab chiqarish infrastruktura va sotsial (ijtimoiy) infrastruktura ob'ektlari. Ishlab chiqarish infrastruktura ob'ektlari asosiy moddiy ne'mat ishlab chiqarish korxonalari va tarmoqlariga xizmat ko'rsatib, mamlakat iqtisodiyotida moddiy ne'matlar (tovarlar) ishlab chiqarish uchun xizmat ko'rsatadilar: Bular:

- elektr energetika tarmoqlari korxonalari;
- ximiyaviy maxsulotlar ishlab chiqaruvchi, qaysiki, mineral o'g'itlar, turli poroshoklar, bo'yoklar va xokazo;
- yo'l infrastruktura ob'ektlari, yo'l qurilish va transport vositalari bilan xizmat ko'rsatish;
- suv ta'minotini yetkazib beruvchi korxonalar;
- maxsulotni qadoqlash, o'rash, belgi tayyorlash hamda ularni sifatini aniqlovchi korxonalar;
- omborxona, xolodilnik korxonalar, qaysiki, maxsulotlarni saqlash va ularni sifatli saqlab xizmat ko'rsatuvchilar;
- tayyorlangan tovarlarni xaridorlarga sotish bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari;
- maxsulotlarni yetishtirishda turli zararkunandalarga qarshi kurashuvda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot korxonalari;
- yangi samarali urug'chilik, ko'chatchilik kabi seleksiya ishlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar, laboratoriyalar;
- chorva xayvonlarini veterinariya xizmatini amalga oshiruvchi va yangi zot, naslchilik ishlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar;
- marketing muammolari bajaruvchi infrastruktura ob'ektlari;
- yong'inga qarshi kurashuvchi "o't o'chirish" shaxobchalari;
- yangi texnologiyalar, nou-xau, sun'iy intellekt kabi ilmiy ixtirolar bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari;
- ishlab chiqarish vositalari remonti bilan shug'ullanuvchi korxonalar;
- reklama maxsulotlarini tayyorlovchi va ularga xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar va boshqalar [3].

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish infrastruktura ob'ektlari shakllanishi mamlakatning moddiy ishlab chiqarish ixtisoslashuv darajasi, kooperatsiyaning



hajmlari va undagi texnologiya darajasi hamda sun'iy intellektning o'rne kabi munosabatlarga bog'liqdir. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi, kooperatsiya, integratsiya muximdir. Shuni e'tiborga olish lozimki, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi band bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini sifati, unumdorligi, ilmiy ixtirolarni darajalari hamda ulardagi ishlab chiqarishdagi robotlashtirish mavqei, sun'iy intellektdan foydalanish xolatlarini bilan bir qatorda shaxsiy omil bo'lgan ish kuchining malakasi kabi omillarga bog'liq. Agarda yuqoridagi omillar darajasi yuqori bo'lsa, ularga mos-monand ishlab chiqarish infrastruktura ob'ektlari shakllantiriladi. Agarda, aksincha bo'lsa, demak mavjud moddiy ishlab chiqarish korxonalari darajasi zamonaviy ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omillari bilan ta'minlanmagan xolda, ularning sifat va unumdorlik ko'rsatqichlaridan kelib chiqib infrastruktura shaxobchalari tashkil qilinadi [4-6].

Xulosa. Infratuzilma ob'ektlarining shakllanishi mamlakat makroiqtisodiy tizimining tarkibiy tuzilishi, ixtisoslashuvi va rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi nomoddiy sohalar o'zaro uzviy aloqada rivojlanadi va bu jarayonda mehnat taqsimoti hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati, yengil sanoat, mashinasozlik va turizm kabi tarmoqlarning rivojlanishi ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarini kengaytirish va takomillashtirishni talab etmoqda. Jumladan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati faoliyati misolida ko'rish mumkinki, yirik sanoat korxonalarining mavjudligi transport, energetika, laboratoriya, qayta ishlash va boshqa xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmoqlarining shakllanishiga bevosita turtki beradi.

Shuningdek, paxta xom ashyosini qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish jarayonlari ham ko'plab infratuzilma sub'ektlarini — logistika, qadoqlash, saqlash, marketing va savdo tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Turizm sohasining jadal rivojlanishi esa transport kommunikatsiyalari, mehmonxona xo'jaligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va servis xizmatlari infratuzilmasining kengayishini talab qilmoqda.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi mamlakatning tabiiy resurslari, mehnat resurslari malakasi, texnologik taraqqiyot darajasi, sun'iy intellekt va innovatsion ishlanmalar joriy etilishi bilan belgilanadi. Moddiy ishlab chiqarish omillarining sifat va unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, ularga mos ravishda zamonaviy infratuzilma tizimi shakllantiriladi. Aksincha, ishlab chiqarish darajasi past bo'lgan sharoitda infratuzilma ham mos ravishda cheklangan ko'lamda rivojlanadi.

Umuman olganda, infratuzilma ob'ektlarining metodologik asoslari iqtisodiy tizimning ichki va tashqi omillari, mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, kooperatsiya va integratsiya jarayonlari bilan belgilanadi. Infratuzilmaning izchil va kompleks



rivojlanishi mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va aholi farovonligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti.
2. Makroiqtisodiyot. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi materiallari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan qabul qilingan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlari.